

Date: 25th April-2025

O'QUVCHILARGA HUQUQ FANINING O'QITISHDAGI AHAMIYATI

O'rmonov To'lqin

Respublika musiqa va san'at texnikumi

Annotatsiya: Ushbu maqolada huquq fanining mazmuni, jamiyatdagi roli, fuqarolik jamiyatini shakllantirishdagi o'rni hamda huquqiy ong va madaniyatni yuksaltirishdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, huquqiy davlat va qonun ustuvorligi g'oyasining zamonaviy ijtimoiy tizimdagi aks ettirilishi yoritiladi.

Kalit so'zlar: huquq, fuqarolik jamiyati, qonun ustuvorligi, huquqiy ong, huquqiy davlat, adolat

Insoniyat tarixida huquq har doim ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish vositasi bo'lib xizmat qilib kelgan. Har bir jamiyat o'z huquqiy tizimiga ega bo'lib, fuqarolarning erkinligi, tengligi va adolatli yashashini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Bugungi kunda huquqshunoslik nafaqat nazariy fan sifatida, balki amaliy siyosat, boshqaruv, ijtimoiy muvozanatni saqlashda strategik ahamiyatga ega sohaga aylangan.

Bugungi kunda inson huquqlari, qonun ustuvorligi va huquqiy davlat barpo etish jarayoni dunyo miqyosida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu munosabat bilan yosh avlodga huquqiy bilim berish, ularning ongida qonunlarga hurmat, adolatga intilish kabi fazilatlarni shakllantirish dolzarb masalaga aylandi. Ayniqsa, huquq fanining o'quvchilarga o'qitilishi ularning huquqiy savodxonligini oshirishga, kelajakda ijtimoiy faolligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Huquq fani — bu inson va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi, huquqiy normalarni o'rganuvchi ilmiy sohaga aytiladi. U ijtimoiy munosabatlarning barcha sohalarini: siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ekologik yo'nalishdagi munosabatlarni huquqiy me'yorlar asosida tartibga soladi. Fan sifatida huquq:

- qonunlarni tahlil qiladi;
- huquqiy institutlarning faoliyatini o'rganadi;
- fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish yo'llarini ishlab chiqadi.

Har bir fuqaroda huquqiy ong va huquqiy madaniyat shakllanishi — demokratik jamiyat asosidir. Huquqiy ong — bu shaxsning huquqiy bilimlarga ega bo'lishi, qonunlarga nisbatan hurmat va amal qilish mas'uliyatini his etishi demakdir. Huquqiy madaniyat esa:

- qonunlarni tushunish va ularga rioya qilish;
- huquqni targ'ib qilish;
- jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlashni anglatadi.

Bugungi kunda huquqiy madaniyatni shakllantirishda ommaviy axborot vositalari, ta'lim tizimi, davlat siyosati muhim o'rin tutadi.

Huquqiy davlat — bu fuqarolarning huquq va erkinliklari qonun bilan kafolatlangan, davlat hokimiyati qonun asosida amal qiladigan siyosiy tizimdir. Qonun ustuvorligi deganda:

Date: 25th April-2025

- barcha fuqarolar va mansabdor shaxslar qonun oldida tengligi;
- sud hokimiyatining mustaqilligi;
- konstitutsiyaviy nazoratning kuchliligi tushuniladi.

O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlar aynan qonun ustuvorligini mustahkamlashga, huquqiy davlat asoslarini barpo etishga qaratilgan.

Huquq — bu jamiyat hayotini muvofiqlashtiruvchi va nizolarni hal etuvchi muhim ijtimoiy institutdir. U: ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydi;

- fuqarolarning huquqiy himoyasini kafolatlaydi;
- davlat hokimiyatining qonuniy asosda ishlashini ta'minlaydi.

Huquqiy tizim kuchli bo'lgan jamiyatda:

- investitsiyalar ko'p bo'ladi,
- fuqarolar ishonchi yuqori bo'ladi,
- jamiyat taraqqiyotga erishadi.

Huquq fanining zamonaviy jamiyatdagi o'rni beqiyosdir. U ijtimoiy barqarorlikni saqlash, erkinlik va adolatni qaror toptirish, huquqiy ong va madaniyatni yuksaltirish orqali fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Har bir fuqaro huquqiy bilimlarga ega bo'lishi, qonunlarga hurmat bilan qarashi — taraqqiyot garovidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Qodirov, M. *Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati*. – T.: Adolat, 2020.
2. Малько, А. В. *Теория государства и права*. – М.: Юрайт, 2019.
3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2023.
4. Xasanboyeva, G. *Huquqshunoslik asoslari*. – T.: Yangi asr avlodi, 2017.

